

**TOSHKENT XALQARO AEROPORTINING TRANZIT SALOHIYATINI
KENGAYTIRISH VA XALQARO AVIAQATNOVLAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO'NALISHLARI****Rixsiyev Dilmurod Xodjiakbarovich**

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20215708>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi Toshkent xalqaro aeroportining tranzit salohiyatini kengaytirish, xalqaro aviaqatnovlar samaradorligini oshirish hamda aeroportni mintaqaviy transport-logistika markaziga aylantirish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv sharoitida aeroportlar nafaqat yo'lovchilarni tashish va parvozlarni qabul qilish maskani, balki mamlakat iqtisodiyoti, xalqaro savdo, turizm, logistika, investitsion faollik va xizmatlar sohasi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi strategik infratuzilma obyekti sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Toshkent xalqaro aeroportining faoliyatini takomillashtirish O'zbekistonning xalqaro transport tizimidagi o'rnini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Toshkent xalqaro aeroporti geografik joylashuvi jihatidan Markaziy Osiyoning muhim tranzit nuqtalaridan biri hisoblanadi. Aeroport Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va MDH davlatlarini bog'lovchi qulay transport yo'lagida joylashgani sababli, undan xalqaro tranzit yo'lovchilar oqimini oshirishda samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Ayniqsa, xalqaro reyslar sonining ortib borishi, yangi aviayo'nalishlarning ochilishi, xorijiy aviakompaniyalar bilan hamkorlikning kengayishi va havo transportiga bo'lgan talabning oshishi aeroportning mintaqaviy aviaxab sifatidagi ahamiyatini kuchaytirmoqda.

Kalit so'zlar: Toshkent xalqaro aeroporti, tranzit salohiyati, xalqaro aviaqatnovlar, aeroport infratuzilmasi, yo'lovchi oqimi, mintaqaviy aviaxab, transport-logistika markazi, raqamli texnologiyalar, bagajlarni qayta yo'naltirish, xalqaro aviakompaniyalar, tranzit yo'lovchilar, aeroport menejmenti, xizmat ko'rsatish sifati, bojxona nazorati.

**DIRECTIONS FOR EXPANDING THE TRANSIT CAPACITY OF TASHKENT
INTERNATIONAL AIRPORT AND IMPROVING THE EFFICIENCY OF
INTERNATIONAL AIR TRAVEL**

Abstract. This thesis analyzes the issues of expanding the transit capacity of Tashkent International Airport, increasing the efficiency of international air traffic, and transforming the airport into a regional transport and logistics center from a scientific and practical perspective. In today's globalization environment, airports are considered not only a place for transporting passengers and receiving flights, but also a strategic infrastructure facility that directly affects the development of the country's economy, international trade, tourism, logistics, investment activity and the service sector. From this point of view, improving the operation of Tashkent International Airport is of great importance in strengthening Uzbekistan's position in the international transport system.

Tashkent International Airport is one of the important transit points in Central Asia in terms of its geographical location. Since the airport is located on a convenient transport corridor connecting Europe, Asia, the Middle East, South Asia and the CIS countries, it has the potential to be effectively used to increase the flow of international transit passengers. In particular, the increasing number of international flights, the opening of new air routes, the expansion of

cooperation with foreign airlines, and the growing demand for air transport are strengthening the importance of the airport as a regional hub.

Keywords: *Tashkent International Airport, transit capacity, international flights, airport infrastructure, passenger flow, regional hub, transport and logistics center, digital technologies, baggage rerouting, international airlines, transit passengers, airport management, quality of service, customs control.*

Tahlil va natijalar

Toshkent xalqaro aeroportining tranzit salohiyatini kengaytirish masalasi O‘zbekiston transport tizimining umumiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda xalqaro aeroportlar faqat samolyotlar qo‘nib-uchadigan hudud emas, balki mamlakatning iqtisodiy faolligi, turizm salohiyati, xalqaro savdo aloqalari va xizmatlar bozori rivojiga ta’sir qiluvchi yirik infratuzilmaviy markaz hisoblanadi. Shu jihatdan Toshkent xalqaro aeroporti O‘zbekistonning eng muhim havo darvozasi bo‘lib, uning samaradorligi butun mamlakat aviatsiya tizimining raqobatbardoshligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Toshkent xalqaro aeroportida yo‘lovchi oqimi yildan-yilga ortib bormoqda. 2025-yilda aeroport 9 964 602 nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatgan va 40 153 ta reys amalga oshirilgan. Taqqoslash uchun, 2024-yilda aeroport 8 725 521 nafar yo‘lovchi va 34 789 ta reys bilan ishlagan. Demak, bir yil ichida yo‘lovchi oqimi qariyb 14 foizga, reyslar soni esa 15 foizga oshgan. Bu ko‘rsatkichlar Toshkent aeroportining O‘zbekiston aviatsiya tizimidagi yetakchi o‘rni mustahkamlayotganini va uning xalqaro tranzit markaziga aylanish imkoniyati kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu o‘shish, bir tomondan, mamlakatda xalqaro aviaqatnovlarga bo‘lgan talabning oshgani bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, O‘zbekistonning turizm, biznes, mehnat migratsiyasi va xalqaro savdo aloqalaridagi faolligi kuchaygani bilan bog‘liq. Ayniqsa, Toshkent aeroporti orqali amalga oshirilayotgan xalqaro qatnovlarning asosiy qismi Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va MDH davlatlari bilan bog‘liq ekani aeroportning tranzit ahamiyatini oshirmoqda. 2025-yil yakunlari bo‘yicha Toshkent–Moskva–Toshkent yo‘nalishi 1 173 652 nafar yo‘lovchi bilan eng gavjum xalqaro yo‘nalish bo‘lgan, Toshkent–Istanbul–Toshkent yo‘nalishida esa 983 858 nafar yo‘lovchi tashilgan. Bu raqamlar Toshkent aeroporti xalqaro yo‘nalishlar kesishmasida muhim nuqta bo‘lib borayotganini bildiradi.

Toshkent xalqaro aeroportining tranzit salohiyatini baholashda uning geografik joylashuvi alohida ahamiyatga ega. Toshkent Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi havo yo‘llarini bog‘lash uchun qulay nuqta hisoblanadi. Aeroport orqali MDH davlatlari, Turkiya, BAA, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston va Yevropa yo‘nalishlariga qatnovlarni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bu esa Toshkent aeroportini nafaqat O‘zbekiston fuqarolari uchun, balki xorijiy tranzit yo‘lovchilar uchun ham qulay bog‘lovchi markazga aylantirishi mumkin.

Biroq tranzit salohiyatni kengaytirish uchun faqat geografik joylashuvning o‘zi yetarli emas. Aeroport samaradorligi, avvalo, xizmat ko‘rsatish tezligi, parvozlarning jadvalining muvofiqchiligi, bagaj tizimining ishonchiligi, chegara va bojxona nazoratining qulayligi, yo‘lovchilar uchun kutish hududlari va raqamli xizmatlarning rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Agar tranzit yo‘lovchi aeroportda uzoq vaqt kutib qolsa, bagaj almashinuvi kechiksa yoki reyslar o‘rtasidagi ulanish noqulay bo‘lsa, aeroportning raqobatbardoshligi pasayadi. Shu sababli Toshkent aeroportida

tranzit yo'lovchilar uchun alohida yo'laklar, tezkor ro'yxatdan o'tish tizimlari, elektron pasport nazorati va avtomatlashtirilgan bagaj yo'naltirish tizimlarini kengaytirish muhim hisoblanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Toshkent aeroportining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Elektron ro'yxatdan o'tish, onlayn chipta va bagaj nazorati, mobil ilovalar orqali parvoz holatini kuzatish, avtomatik axborot panellari va sun'iy intellekt asosida yo'lovchi oqimini boshqarish tizimlari aeroportdagi navbatlarni qisqartiradi. Bu esa nafaqat yo'lovchilar qulayligini oshiradi, balki aeroportning umumiy o'tkazuvchanlik salohiyatini ham kuchaytiradi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirilgan aeroportlarda yo'lovchilarni ro'yxatdan o'tkazish va xavfsizlik nazoratidan o'tkazish jarayoni tezlashadi, inson omiliga bog'liq xatolar kamayadi va xizmat sifati oshadi.

Yana bir muhim natija shundan iboratki, aeroportning tranzit salohiyati xalqaro aviakompaniyalar bilan hamkorlik darajasiga bevosita bog'liq. Toshkent xalqaro aeroporti orqali ko'proq xorijiy aviakompaniyalar qatnovini yo'lga qo'yish, kod-shering kelishuvlarini kengaytirish, xalqaro reyslar orasidagi ulanish vaqtlarini optimallashtirish va tranzit tariflarini moslashtirish orqali yo'lovchi oqimini sezilarli darajada oshirish mumkin. Masalan, Moskva va Istanbul yo'nalishlaridagi yuqori yo'lovchi oqimi Toshkent aeroporti uchun xalqaro bog'lovchi reyslar tizimini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Aeroportning iqtisodiy samaradorligini oshirishda yuk tashish va logistika xizmatlarini rivojlantirish ham alohida o'rin tutadi. 2025-yilda O'zbekiston aeroportlari orqali **98 137 tonna yuk va pochta jo'natmalari** qayta ishlangan bo'lib, bu 2024-yilga nisbatan **12 foizga ko'pdir**. Bu ko'rsatkich havo yuk tashuvlariga talab ortib borayotganini bildiradi. Toshkent xalqaro aeroportida zamonaviy kargo terminali, sovutkichli omborlar, tezkor bojxona rasmiylashtiruv va elektron logistika tizimlarini rivojlantirish eksport-import operatsiyalari samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, farmatsevtika mahsulotlari, tez buziladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, elektron tijorat tovarlari va yuqori qiymatli yuklarni tez yetkazib berishda aeroportning roli ortadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Toshkent xalqaro aeroportining hozirgi o'sish sur'atlari ijobiy bo'lsa-da, mavjud infratuzilmani kengaytirish zarurati kuchaymoqda. Yo'lovchi oqimining bir yil ichida 14 foizga oshishi terminal, xavfsizlik nazorati, bagaj qabul qilish va kutish zallari yuklamasini oshiradi. Agar ushbu yuklama zamonaviy boshqaruv va infratuzilma kengayishi bilan muvofiqlashtirilmasa, kelajakda navbatlar ortishi, parvozlarning kechikishi va xizmat sifati pasayishi mumkin. Shu bois aeroport rivojida faqat reyslar sonini ko'paytirish emas, balki xizmat ko'rsatish tizimining ichki samaradorligini oshirish ham muhim hisoblanadi.

Shuningdek, 2026-yil birinchi choragida O'zbekiston aeroportlari qariyb 4 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatgani, poytaxt aeroporti esa 2,56 million yo'lovchi va qariyb 19 mingta reys bilan yetakchi bo'lgani sohaning o'sish dinamikasi davom etayotganini ko'rsatadi. Bu holat Toshkent aeroporti oldida yaqin yillarda yanada katta yo'lovchi oqimini qabul qilish vazifasi turganini bildiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari Toshkent xalqaro aeroportining tranzit salohiyatini oshirish uchun bir nechta ustuvor yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatadi. Birinchidan, terminal infratuzilmasini kengaytirish va yo'lovchilar oqimini boshqarish tizimini takomillashtirish zarur. Ikkinchidan, tranzit yo'lovchilar uchun qulay xizmatlar, qisqa ulanish vaqtlari, tezkor nazorat punktlari va bagajni avtomatik yo'naltirish tizimlari rivojlantirilishi kerak. Uchinchidan, xalqaro aviakompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va yangi yo'nalishlarni ochish orqali Toshkent aeroportining bog'lovchi markaz sifatidagi mavqeyi mustahkamlanadi. To'rtinchidan, aeroport

xizmatlarini raqamlashtirish orqali inson omiliga bog‘liq kechikishlar kamayadi va operatsion samaradorlik oshadi. Beshinchidan, kargo va logistika xizmatlarini rivojlantirish aeroportning faqat yo‘lovchi tashish emas, balki xalqaro savdo infratuzilmasidagi rolini ham kuchaytiradi.

Toshkent xalqaro aeroportining tranzit salohiyatini kengaytirish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. 2024–2025-yillardagi o‘shish ko‘rsatkichlari aeroportning xalqaro ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi. Agar aeroport infratuzilmasi, raqamli xizmatlar, xalqaro hamkorlik, yuk tashish tizimi va tranzit yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifati kompleks tarzda rivojlantirilsa, Toshkent xalqaro aeroporti yaqin yillarda Markaziy Osiyodagi muhim aviaxabga aylanishi mumkin.

Xulosa

Toshkent xalqaro aeroportining tranzit salohiyatini kengaytirish va xalqaro aviaqatnovlar samaradorligini oshirish O‘zbekiston transport-logistika tizimini rivojlantirishda muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Toshkent xalqaro aeroporti mamlakatning asosiy havo darvozasi sifatida nafaqat ichki va tashqi yo‘lovchi tashuvlarini amalga oshiradi, balki O‘zbekistonni Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq va MDH davlatlari bilan bog‘lovchi muhim transport markazi vazifasini ham bajaradi. Shu sababli aeroport faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish mamlakat iqtisodiyoti, turizm sohasi, xalqaro savdo aloqalari va investitsion jozibadorlikni oshirishga bevosita xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda Toshkent xalqaro aeroportida yo‘lovchi oqimi va xalqaro reyslar soni muntazam oshib bormoqda. Bu esa aeroportning mintaqaviy aviaxabga aylanish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu imkoniyatdan to‘liq foydalanish uchun aeroport infratuzilmasini kengaytirish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tezlashtirish, tranzit yo‘lovchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, bagajlarni qayta yo‘naltirish tizimini takomillashtirish va parvozlar jadvalini samarali muvofiqlashtirish zarur.

Toshkent xalqaro aeroportining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. Elektron ro‘yxatdan o‘tish, avtomatlashtirilgan pasport nazorati, onlayn bagaj kuzatuv, mobil ilovalar va sun‘iy intellekt asosida yo‘lovchi oqimini boshqarish tizimlari aeroportdagi navbatlarni kamaytiradi, xizmat ko‘rsatish tezligini oshiradi va yo‘lovchilar uchun qulay muhit yaratadi. Bu esa aeroportning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Shuningdek, xalqaro aviaqatnovlar samaradorligini oshirish uchun xorijiy aviakompaniyalar bilan hamkorlikni kengaytirish, yangi xalqaro yo‘nalishlarni ochish, kodshering kelishuvlarini rivojlantirish va tranzit tariflarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, Toshkent orqali Yevropa–Osiyo, MDH–Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq–Markaziy Osiyo yo‘nalishlarida bog‘lovchi reyslarni ko‘paytirish aeroportning tranzit salohiyatini yanada oshiradi.

Aeroport samaradorligini oshirishda yuk tashish va logistika xizmatlarini rivojlantirish ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy kargo terminallarini kengaytirish, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini soddalashtirish, sovutkichli omborlar va elektron logistika tizimlarini joriy etish orqali Toshkent xalqaro aeroporti nafaqat yo‘lovchi tashish, balki xalqaro yuk tashish markazi sifatida ham rivojlanishi mumkin.

Toshkent xalqaro aeroportining tranzit salohiyatini kengaytirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bunda aeroport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantirish, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, logistika xizmatlarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish asosiy yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi Toshkent xalqaro aeroportini

Markaziy Osiyodagi yirik va raqobatbardosh tranzit markazlardan biriga aylantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzbekistan Airports. (2026). *Toshkent xalqaro aeroportining 2025-yildagi yo'lovchi oqimi va reyslar soni bo'yicha ma'lumotlari*. Toshkent: Uzbekistan Airports.
2. UzDaily. (2026). *Tashkent International Airport served nearly 10 million passengers in 2025*. UzDaily, 1-yanvar.
3. Kun.uz. (2025). *Uzbekistan Airports names busiest domestic and international air routes in 2025*. Kun.uz, 31-dekabr.
4. Uzbekistan Airports. (2026). *O'zbekiston aeroportlarida yo'lovchi oqimi va yuk tashish ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy axborotlar*. Toshkent: Uzbekistan Airports.
5. Tashkent Airport. (2026). *Toshkent xalqaro aeroporti rasmiy sayti: parvozlar, xizmatlar va yo'lovchilar uchun ma'lumotlar*.
6. ICAO. (2025). *Economic Development of Air Transport*. International Civil Aviation Organization.
7. ICAO. (2025). *Connectivity: air transport connectivity and sustainable tourism development*. International Civil Aviation Organization.
8. IATA. (2025). *Airport Development Reference Manual*. International Air Transport Association.
9. IATA. (2025). *Airport Development: airport planning, terminal design and infrastructure standards*. International Air Transport Association.
10. Central Asia Plus Aero. (2026). *Tashkent airport sees 14% growth in 2025*. Central Asia Plus Aero, 2-yanvar.
11. Daryo.uz. (2025). *Uzbekistan Airports handle 7.1 million passengers in first half of 2025*. Daryo.uz, 28-iyul.
12. ICAO. (2019). *Economic Development of Air Transport's Contribution to Sustainable Development*. International Civil Aviation Organization.